



KO'L BAQASINING TUZILISHI VA RIVOJLANISHI ,YASHASH MUHITI VA HAYOT KECHIRISHI.

Ma'rifjonova Xursanoy Bahodirjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Tabiiy fanlar fakulteti

Biologiya yo'nalishi 2- bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10369334>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi suvda hamda quruqlikda yashovchilar tarkibiga kiruvchi ko'l baqasini tuzilishi, tarqalishi , organlar sistemasi, yashash muhiti va hayot kechirishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Gavda tuzilishi , tarqalgan joylari, skeleti, hazim qilish ,nafas olish, qon aylanish, nerv,ayrish sistemalari , sezgi organlar,ko'payish va rivojlanishi, yashash muhiti va hayot kechirishi.

Ko'l baqasi yer yuzida keng tarqalgan , faqat sovuq shimoliy mintaqalarda va baland tog'li hududlarda uchramaydi. Yilning iliq mavsumlarida uni sernam joylarda , chuchuk suv havzalari va ular yaqinida uchratish mumkin. Hayotning ko'p qismini quruqlikda o'tkasa-da suvdan hech qachon nari ketmaydi. Baqa ariqlar tubidagi balchiqqa ko'milib yoki suv ostidagi o'simliklar orasida, daraxtlar ildizi yaqinidagi kovaklarda qishki uyquga ketadi. Ko'l baqasi kunduz kunlari qirg'oq yaqinida ov qiladi. U qo'ng'iz , pashsha , chivin , o'rgimchak kabi mayda umurtqasiz hayvonlar bilan oziqlanadi. Ovga chiqqan baqa qimirlamay o'ljani poylab yotadi. Baqalar faqat harakatlangan o'ljanigina payqaydi. Baqa og'zidan uzun yopishqoq tilini chiqarib, o'ljani tili bilan yopishtirib oladi.Tashqi tuzilishi. Gavda tuzilishi- bosh tuzilishi yassi, ikki yonida bo'rtib chiqqan ikki qovoqli ko'zi, ko'zning orqa qismida nog'ora parda va faqat erkak baqa uchun xos bo'lgan kulrang pufakcha joylashgan, oldingi oyoq – yelka, bilan va 4 ta panjadan iborat, orq oyoq nisbatan kuchsiz rivojlangan , orqa oyoq – son, boldir, tovon va 5 panjadan iborat, nisbatan kuchli rivojlangan, suvda suzib quruqlikda sakrash vazifasini bajaradi, barmoqlar orasiga suzgich parda tortilgan. Tana shakli yapaloq bo'ladi.

Skeleti- umurtqa pog'onasi, bosh qutisi, oyoqlar va ularning kamaridan iborat: umurtqa pog'onasi – bo'yin, ko'krak, dumg'aza, dum qisimlardan iborat; oldingi oyoq – erkin suyaklar (yelka, 2 ta bilak,bir qancha panja suyaklari) va yelka kamari (2 tadan ko'krak – tirgak, o'mrov , kurak suyaklari); orqa oyoq – erkin suyaklar (son, bolder, tovon, panja suyaklari) va kamar (3 ta chanoq)dan iborat bo'ladi.

Hazim qilish sistemasi – og'iz – halqum – qizilo'ngach – oshqozon – ichak- kloaka.





Nafas olish sistemasi – o'pka va teri(yashil qurbaqa faqat o'pka bilan nafas oladi).

Qon aylanish sistemasi – yopiq 2 ta qon aylanish, yurak 3 kamerali. Katta qon aylanish doirasi Yurak qorinchasi (aralash qon) - aorta – arteriya – kapillyarlar-vena – yurakning o'ng bo'lmachasi (venoz qon). Kichik qon aylanish doirasi yurak qorinchasi – o'pka arteriyasi – kapillyarlar – vena – yurakning chap bo'lmasi (arterial qon) . Faqat bosh miyaga toza arterial qon boradi.

Nerv sistemasi- bosh miya (bosh miya yarimsharlari va bosh miya bo'limlari) va orqa miyadan iborat.

Ayrish sistemasi- 2 ta tasmaimon buyraklar – 2 ta siydik yo'li – kloaka. Sezgi organlari – ko'zi 2 ta qovoq bilan himoyalangan ; Eshitish organlari o'rta quloq va ichki quloqdan iborat.

Ko'payishi va rivojlanishi – urug'lanishi tashqi. Tuxumdan lichinka (itbaliq) chiqib , rivojlanish jarayonida baqaga aylanadi. Yosh baqalar 3 yilda voyaga yetadi.

Baqalar baliqlar singari soviqqonli hayvonlardir. Ularning organizimida moddalar almashinuvi sust kechganidan tanasining harorati tashqi muhit haroratiga bog'liq, ya'ni havo isiganda tana harorati ko'tariladi, soviganda esa pasayadi. Sovuq tushganda baqalar kam harakat bo'lib qoladi .Qishda ular biror pana joyga kirib olib karaxt bo'lib yotadi.

Suvda hamda quruqlikda yashovchilarning kelib chiqishi – 300 mln yil oldin panjaqanotlilardan dumlilar, dumlilardan esa dumsizlar kelib chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.“Zoologiyasi” S.Dadayev, Q. Saparov.
- 2.Ataboyeva A, Malikov T, Shabbozov X “Science and innovation “ 2022.
- 3.Mamadova Dildora “Zoologiya “.

